MAHMUDXO‘JA BEHBUDIYNING ISLOM DINIGA OID QARASHLARI

Maftuna Muyidinovna Jamolova,
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.19968041

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Mahmudxo‘ja Behbudiyning islom diniga oid qarashlari, uning diniy-ma’rifiy faoliyati hamda jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni tahlil etiladi. Muallif Behbudiyning asarlari va publitsistik merosi asosida uning islomni yangicha talqin qilgani, uni ilm-fan va taraqqiyot bilan uyg‘un holda rivojlantirish g‘oyasini ilgari surgani yoritadi. Shuningdek, mutafakkirning diniy mutaassiblikka munosabati, ta’lim-tarbiya va ma’rifatni isloh qilishga qaratilgan fikrlari ochib beriladi. Tadqiqotda Behbudiyning qarashlari zamonaviy nuqtayi nazardan baholanib, ularning bugungi jamiyat uchun ahamiyati asoslab beriladi.*

Kalit so‘zlar: *jadidchilik, islom dini, ma’rifat, ta’lim islohoti, diniy qarashlar, mutaassiblik, taraqqiyot.*

Аннотация. *В данной статье анализируются взгляды Махмудходжи Бехбуди на ислам, его религиозно-просветительская деятельность и роль в развитии общества. На основе произведений и публицистического наследия Бехбуди автор освещает его новую интерпретацию ислама, выдвижение идеи его развития в гармонии с наукой и прогрессом. Также раскрывается отношение мыслителя к религиозному фанатизму, его мысли, направленные на реформирование образования и просвещения. В исследовании взгляды Бехбуди оцениваются с современной точки зрения и обосновывается их значение для современного общества.*

Ключевые слова: *джадидизм, исламская религия, просвещение, реформа образования, религиозные взгляды, фанатизм, прогресс.*

Abstract. *This article analyzes Mahmudhoja Behbudi’s views on Islam, his religious and educational activities, and his role in the development of society. Based on Behbudi’s works and journalistic heritage, the author highlights his new interpretation of Islam and the idea of its development in harmony with science and progress. It also reveals the thinker’s attitude toward religious fanaticism and his ideas aimed at reforming education and enlightenment. The study evaluates Behbudi's views from a modern perspective and substantiates their significance for today’s society.*

Keywords: *Jadidism, Islamic religion, enlightenment, educational reform, religious views, fanaticism, progress.*

Kirish. 20-yuzyillik boshlarida Turkiston mintaqasidagi davlat boshqaruvida shariat qonunlarining amal qilishi, jamiyatidagi islomiy an’analar, diniy marosimlar – barcha-barchasi dinning qudratini ko‘rsatib turardi. Nafaqat islom diniga, boshqa dinga e’tiqod qiluvchilarning turish-turmushi, hayoti va faoliyati e’tiqodiga bog‘liq edi. Turkiston jadidlari ham e’tiqodiga mustahkam, islomning mohiyatini chuqur anglagan, uning haqiqiy mazmunini xalqqa yetkazishni maqsad qilgan ulamolar edilar. Shu o‘rinda qayd qilish kerakki, Mahmudxo‘ja Behbudiy hayoti va faoliyatida ham din omili muhim o‘rin tutgan. Uning islomni anglashida birinchi navbatda oilaviy muhitning ta’siri katta bo‘lgan.

Adabiyotlar tahlili. Behbudiy islom dini, uning mohiyati, jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni, ulamolarning diniy mutaassibligi, uning Turkiston musulmonlari hayotiga ta’siri masalalariga bag‘ishlab bir nechta asarlar yozgan. Mahmudxo‘ja Behbudiy “Padarkush” dramasida davlat ikki toifa: diniy va zamonaviy olimlarga ehtiyoj sezishini yozadi. Diniy olimlar imom, xatib, mudarris, muallim, qozi, mufti bo‘lib, xalqning diniy, axloqiy va ruhoniy ishlarini boshqarsa, zamonaviy olimlar shifokorlik, qonunchilik, muhandislik, sudyalik, tijorat, dehqonchilik, iqtisod, astronomiya, muallimlik va boshqa kasblar bilan shug‘ullanadi. Diniy bilim egasi bo‘lishni istagan talabalar, avvalo, Turkistonda va Buxoroda diniy ilmni, arab va bir oz ruschani o‘rganib, so‘ngra Makka, Madina, Misr va Istanbulda to‘liq diniy ilm olishlari va olim bo‘lishlari mumkinligini qayd qiladi. Zamoniy olim bo‘lish uchun esa bolalarni, avvalo, musulmoniy xat va savodini chiqarish, zaruriyati diniya va o‘z tilini o‘rgatish, so‘ngra hukumatning nizomiy maktablarida o‘qub tamom qilganlaridan so‘ng, Peterburg, Moskva dorilfununlarig‘a borib sohalar bo‘yicha ilmlarni o‘qishlari lozimligini uqtiradi.

“Samarqand” gazetasidagi “Millatlar qanday taraqqiy etarlar” maqolasida maktab va madrasani isloh qilish davr talabi ekanini qayd qilgan: “Bugun islohi maktab, madrasa, ya’ni islohi millatga qo‘shish qilinmasa, bir asr so‘ngra diyonat barbod bo‘lur va aning javobi mas’uliyati bugungilarga qolur. Bu mas’uliyatdan qutulmoq uchun millatni diniy ilm va dunyoviy ilm-fan qilmoq uchun targ‘ib qilmoq kerakdur”.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda tarixiy-tahliliy va qiyosiy metodlardan foydalanilib, Mahmudxo‘ja Behbudiyning asarlari hamda publitsistik merosi o‘rganildi. Shuningdek, manbashunoslik yondashuvi asosida birlamchi va ikkilamchi manbalar tahlil qilinib, mutafakkirning diniy qarashlari tizimli ravishda umumlashtirildi.

Tahlillar va natijalar. Mahmudxo‘ja Behbudiy Xo‘ja Ahmad Yassaviyning o‘g‘li Qori Niyozxo‘ja Urganjiy avlodi bo‘lib, amir Shohmurod davrida Buxoro amirligiga taklif qilingan va Samarqandda yashab qolgan. Niyozxo‘janing Solihxo‘ja ismli o‘g‘li bo‘lib, undan Sultonxo‘ja, Huriniso, Najimanisolar tug‘ilgan. Solihxo‘janing Huriniso qizi Qur’oni karimni to‘liq yodlagani uchun “qoriyabegim” deb ulug‘langan. Sultonxo‘ja opasidan qorilikni o‘rgangan, voyaga yetgach mahalla masjidida imom xatiblik qilgan. fikhshunoslikni o‘rgangan, chopon sotish bilan shug‘ullangan. O‘ziga “Behbudxo‘ja” deb taxallus olgan.

Bu davrda maktab va madrasalarda diniy bilimlar berish odat tusini olgan bo‘lib, Behbudiy ham tengqurlari bilan islomiy bilimlarni egallagan. Dastlab maktabda, so‘ngra Buxoro madrasalarida ta’lim olgan. Maktab va madrasalardagi

ta’limi jarayonida Qur’on karim va hadislarni o‘qigan hamda islomni chuqurroq anglab boravergan. Natijada Turkiston jamiyatida din omili ancha mutaassiblashgani, islom najot dini emas, cheklovlar diniga aylanib qolganini tushunib yetgan. Behbudiyning fikricha, mustamlaka sharoitida og‘ir ahvolga tushib qolgan xalqning kambag‘allashuvi, turmush tarzining og‘irlashuvi ham islomiy bilimlarni egallash, ibodatlarini amalga oshirishiga to‘siq bo‘lgan. Mutafakkir har qanday sharoitda ham e’tiqodga sodiqlik masalasi muhim ekanini ta’kidlab, barchani diniy tarbiyasi bo‘lishi kerak, deb hisoblagan. Maktablarda diniy tarbiya berish zaruratini ta’kidlagan. Uning maktablar uchun tayyorlagan ikkita darsligi ham diniy ta’lim va Islom tarixiga bag‘ishlanganligi bejiz emas edi. Uning fikricha, bolaga yoshligidan musulmonlar uchun farz bo‘lgan barcha amallarni o‘rgatish lozim. Behbudiy shogirdlarining diniy bilimdonligi ko‘plab ulamolar tomonidan e’tirof etilgan.

1914-yili ikkinchi marta haj ziyoratiga borgan Mahmudxo‘ja Behbudiy ushbu mamlakatlardan o‘zi va mamlakati uchun katta saboq olgan. U Usmonli turk sultonligi hamda Hijozdagi zamonaviy o‘zgarishlar va islohotlarni “Sayohat xotiralari”da qayd qilish bilan cheklanmay, uni Turkistonda joriy etishga kirishgan taraqqiyparvarlardan biri bo‘ldi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy Usmonli turk sultonligiga qarashli Adarna shahridagi maktab va dorilmualliminlar bilan tanishgan. Shahardagi dorilmuallimin 3 qavatli bo‘lib, 200 talaba tahsil olishiga mo‘ljallangan. Dorilmualliminda 12 nafar muallim faoliyat ko‘rsatgan bo‘lib, 105 talabaga turli fanlardan dars berishgan. Bundan tashqari, Adarnada maktabi sultoniy, maktabi sanoye’, dorilaytom (yetimxona), rushdiy (o‘rta) va 17 ta ibtidoiy (boshlang‘ich) maktablar bo‘lgan.

Mahmudxo‘ja Behbudiy Madina shahridagi zamonaviy o‘zgarishlarni e’tirof etib, Usmonli turk sultonligi tomonidan temir yo‘llar qurilayotganligini ziyoratchilar uchun yaratilayotgan qulayliklar deb hisoblaydi. Shuningdek, Madina shahrida dorilfununlar qurilishi boshlanganligini qayd qilib, dunyoviy bilimlar o‘qitilishi yo‘lga qo‘yilganligini qayd qilib o‘tgan.

Mahmudo‘ja Behbudiy Damashq shahridagi maktab va madrasalar faoliyatini o‘rganish jarayonida ta’lim tizimida Usmonli turk sultonligi tartiblari joriy etilganligining guvohi bo‘ladi. “Sayohat xotiralari”da yozishicha, yangi maktablar – hukumatning mulki e’dodiy (o‘rta maxsus), mulki askariy, mulkiya rushdiya, askariya rushdiya, sultoniy turkiy, sultoniy arabiy va yana bir necha ibtidoiy maktablaridan iborat bo‘lgan. Shuningdek, shaharda hukumatning birta “Maktabi sanoye’” (“Madaniyat maktabi”)si va ikkita katta kutubxonasi bo‘lgan. Damashqda 2-3 turdagi gazetalar chop qilingan bo‘lib, bir nechta matbaalar faoliyat yuritgan.

Mahmudxo‘ja Behbudiy Damashqda aholi uchun shifoxonalar va dorixonalar faoliyat ko‘rsatayotganligiga guvoh bo‘lgan. Bu paytda Turkiston aholisi sog‘ligini tabiblar, duoxonlar va folbinlarga ishonib, zamonaviy tib ilmi natijalaridan foydalanmasligidan afsuslangan. Damashq shahrida ochilgan ko‘plab zavod va fabrikalar mahalliy aholi tomonidan ochilganligini ilm-fanning rivojlanishi mahsuli, deb hisoblaydi va: “*Musulmonlar qo‘linda muz fabrikasi, tamaki va popirus, najjori va sadafkori yog‘och ishlari fabrikasi, harir bofi fabrikasi hamda shisha fabrikasi bordur*”, deb ta’kidlaydi. Turkiston va Buxoroda yer osti va yer usti boyliklari ko‘p bo‘lsa-da, mahalliy aholi tomonidan ularni qayta ishlovchi zavod va fabrikalar ochilmaganligi, haligacha qo‘l mehnatiga asoslangan hunarmandchilik bilan mashg‘ul ekanligini ilmsizlikdan, deb hisoblaydi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy Istanbul, Qohira va Damashq shaharlaridagi teatrlar, musiqaxonalar va kino uylariga borgan. Madaniy hordiq chiqarishga mo‘ljallangan bu joylar shom namozidan keyin ochilgan. Bundan ko‘zlangan maqsad xalq bunday joylarga ozroq muddatga borib, behuda pul sarflamasligini ta’minlash bo‘lgan. Ushbu shaharlarda ayollarning masjidga borib namoz o‘qishlari, o‘z uylaridek tikish tikib o‘tirganlarini ko‘rib hayratga tushgan. Bozorlarda erkaklar bilan barobar savdo bilan shug‘ullanayotgan ayollarning o‘z ishining ustasi ekanligiga guvoh bo‘lgan. Barcha sohalarda islohotlar qilishni yoqlab chiqqan Mahmudxo‘ja Behbudiy Turkiston jamiyatidagi ayollar mavqei oldingidek saqlanib qolishi tarafdori bo‘lgan va ayollar masalasida an’anaviylik fikrida qolgan: “... *Masalan, xotunlar masalasini hozir o‘rtadan chiqarmoq kerak. Mana bul butun Turkistonni ixtilofiga sabab bo‘lub, do‘stlarimiz bag‘rini qon va dushmanlarimizni xursand etar. Bizni ittifoqimizni xohlaganlardan rijo etarmizki, xotunlar masalasidan hozir bahs etmasunlar va muvaqqat zamong‘a havola etsunlar*”.

Mahmudxo‘ja Behbudiy Bayrut shahrida ham ta’lim tizimi bilan tanishib, quyidagi xulosalarga kelgan: “*Ushbu shahar Usmonli turk sultonligi Bayrut viloyatining markazi bo‘lib, ilm va maorif jihatdan Qohiradan so‘ng Sharqda birinchi shahar bo‘lub, ammo maorifning homiysi Ovrupo va Amriqo missionerlaridurki, tarafona maktab va dorilfununlarini taraqqiyig‘a sa’y etarlar*”. Uning yozishicha, Bayrut dorilfununlarini yevropaliklar va amerikaliklar boshqarsa ham, arab tili va tadris fanlari o‘qitilgan. Fransuz, nemis va ingliz tillari ham alohida fan sifatida o‘rgatilgan. Bu dorilfununlarda Turkiston va Buxoro talabalaridan tashqari dunyodagi barcha islom davlatlaridan, shuningdek, Yaponiyadan ham talabalar kelib o‘qigan.

Mahmudxo‘ja Behbudiy Quddus shahrida ochilgan teatr va kino uylari haqida ham batafsil ma’lumot berishga harakat qilgan. Ushbu safardan qaytgach, Turkistonda teatr ishlarini yo‘lga qo‘yish va rivojlantirishga ahd qilgan.

Mahmudxo‘ja Behbudiy Yofa shahridagi ta’lim tizimi va matbuot ishlarini Samarqand bilan qiyoslab tahlil qilgan. Yofa shahrida turklar birta sultoniy (oliy maktab) va bir nechta ibtidoiy (boshlang‘ich) maktab ochgan bo‘lib, shaharning 10 ming aholisi bu maktablar faoliyatiga xayrixoh bo‘lgan. Ayni shu davrda Samarqandning 80 ming aholisi bo‘lib, yangi usul maktablariga rag‘batlari juda sust bo‘lgan. Sultoniy maktabida yuz yaqin talaba o‘qigan va arabcha, turkcha, fransuzchani o‘rgangan. Yofada fransuzlar ham xususiy oliy maktab ochgan bo‘lib, 20 ga yaqin yofalik talabalar ta’lim olgan. Samarqanddagi maktablar esa maktab yoshidagi o‘quvchilarning yarmini ham qamrab olmagan. Mahmudxo‘ja Behbudiy ta’limdagi bu raqamlarni taqqoslar ekan, turkiylardan ilm-fan va madaniyat bo‘yicha ancha orqada bo‘lgan arablarning 20-yuzyillik boshlariga kelib taraqqiy etayotgani, ilmga chanqoqligini e’tirof etib, turkistonliklarni ibrat olishga chaqirgan: *“Samarqanddagi hukumat maktabida nufusi Samarqanddan uning yarmi qadar ham musulmon bolasi yo‘qdur. Mundan ma’lum bo‘lurki, Yofaning arablari bizni musulmonlardan ko‘ra taraqqiydadurlar”.* Yofadgi matbuot ishlari bilan ham tanishgan mutafakkir fransuzlar arab tilida 3 ta gazeta, yahudiylar arab tilida birta va ibroniy tilida birta gazeta nashr qilayotganlarini ta’kidlaydi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy haj ziyorati davrida Istanbul, Makka, Madina, Bayrut, Quddus, Yofa shaharlaridagi maorif, san’at va madaniyat, ayollar va yoshlar masalalariga e’tibor qaratib, Turkistonda ham ilmiy, fanniy va madaniy yangiliklar qilishni zudlik bilan amalga oshirish vaqti kelganini chuqur anglab yetgan. Istanbuldagi xayriya jamiyatlari faoliyati bilan tanishgan va aloqalar o‘rnatgan.

Mahmudxo‘ja Behbudiy Usmonli turk sultonligi hamda Hijozdagi ta’lim va diniy hayotdagi o‘zgarishlarni ko‘rib, Turkistondagi holat bilan taqqoslaydi. Ta’lim sohasini isloh qilish, islom dinini turli bid’at va xurofotlardan tozalash kerakligini anglab yetadi.

“Kiyim va tashabbuh masalasi” maqolasida insonning jamiyatdagi mavqei uning kiyimida emas, balki ilmi, ma’rifati va odob-axloqida namoyon bo‘lishini ta’kidlagan. Ayrim ulamolar tomonidan ilgari surilgan “boshqa millat va din vakillarining kiyimini kiyish yoki ayrim odatlarni bajarish kofirlik sanaladi” degan fikrlarini asossiz deb hisoblaydi. Bunday odatlar zamon talabi ekanini aytib, fikrini Misr muftiysining fatvosi bilan izohlaydi: “...ishlapa” va “shapka” va boshqa Ovrupo kiyimlarini kiymoq shariati islomiyacha hech bir zararlik ish emasdur. Ya’ni shar’an mutlaqo durustdur. Munga inkor qiluvchilar, sunnati rasul, tarixi ummatdan xabarsiz

odamlardur”. Bu odatlarni inkor etuvchilarga Payg‘ambarimiz rumlar jubbasini, Kisroyi taylasonlarini, hind majusiylarining ikki quloqli bosh kiyimini, hurmatli sahobalar ham qaysi shaharni egallasalar o‘sha shahar xalqining kiyimlarini kiyganliklarini misol qilib keltiradi.

“Avvalgi musulmonlardagi madaniyat” maqolasida esa islom dini va musulmon jamiyatining tarixiy taraqqiyotini tahlil qiladi. Din paydo bo‘lib, taraqqiy qilgan davrda musulmonlar hayotidagi yuksalishni o‘z davridagi musulmonlar bilan taqqoslaydi. Toki “avvalgi musulmonlardagi madaniyat”dan xabardor bo‘lub, ibrat olsunlar va musulmonlikni shu kungi holati tadanniydan iborat bilmasunlar”.

Behbudiyning yana bir “Tahsil va safar zamoni va taom” maqolasi zamonaviy ilmlar, til o‘rganish mavzusiga bag‘ishlangan. Maqola Hazrat Alining “…Ey musulmonlar! Bolalaringizga kelar zamon ilmini o‘rgatingiz! Zeroki alarni Xudo taolo xalq etdi, sizni zamonangizdan boshqa, ya’ni kelar zamon uchun”, da’vati bilan boshlangan. Maqolada musulmonlar hayotida ilm-fanga e’tiborning sustligini tanqid qilingan. Xalq bolalari uchun manfaatli bo‘ladigan usuli savtiya maktablarini rivojlantirish, har bir mahallada shunday maktablarni ochish lozimligini uqtiradi. O‘z mulohazalarini Payg‘ambarimiz hadislari asoslaydi: “Ta’lim beringiz va oson qilingiz, yaxshi til va xursandlik ila bildurub, nafrat qildurmangiz”. Behbudiy zamonaviy ilmlarini egallash insonning ma’naviyati yuksalishi uchungina emas, balki moddiy hayotining ham yaxshilanishi uchun muhim ekanligini ta’kidlaydi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy islomchilik g‘oyalarini targ‘ib qilish hamda islomning asl mohiyatini musulmon jamiyatiga yetkazish maqsadida Turkiston taraqqiyparvarlarini birlashtirish bilan bir vaqtda Kavkaz, Usmonli turk sultonligi, Afg‘oniston, Misr va boshqa mamlakatlar taraqqiyparvarlari bilan hamkorlik qilish yo‘lidan bordi. Jumladan, Afg‘oniston taraqqiyparvarlari yetakchisi Mahmudbek Tarziy Turkiston jadidchilik harakatining otasi Mahmudxo‘ja Behbudiy bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘ygani ma’lum.

Mahmudbek Tarziyning Sharq mamlakatlarida islomchilik, ayollarning bilim olishi, milliy ozodlik kurashiga bag‘ishlangan “Ayollar maktabi”, “Qizil yarimoy”, “Iona”, “G‘arb – Sharq”, “Hasad” kabi she’rlari Mahmudxo‘ja Behbudiy muharrirligida chop etilgan “Oyina” jurnalining 1913–1914-yillardagi sonlarida e’lon qilingan.

Mahmudxo‘ja Behbudiy 1903–1904-yillari Peterburg, Moskva, Qozon, Orenburg va Qrimga qilgan safarlari davrida Ismoilbek Gasparali bilan uchrashib, jadid maktablari faoliyatini tashkillashtirish bo‘yicha tajribasini o‘rganadi, islomchilik masalasida suhbatlashadi. Ular maorif, til hamda diniy masalalarda,

shuningdek, siyosiy jarayonlarda o‘z maqsadlarini ifoda etishda ham fikr va maslakdoshlar bo‘lganlar.

Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘zining “Sayohatnoma” asarida 1914-yil 20-iyun kuni Istanbulda Ismoilbek Gasparali bilan uchrashib qolgani va ular yuzma-yuz yetti soat davomida suhbatlashganlarini esga oladi: “Ustod hazratlarini Istanbulda ko‘rmoq va suhbat etmoq hech xayolimga kelmagan edi. Allohning lutfi ila ustod hazratlarining tanhoyi yetti soat suhbatlaridan u qadar fayz topib, mamnun qoldimki, aytgan ila ado etolmayman. Va ul suhbatning lazzati aslo mandan ketmaydur”. Shuningdek, Ismoilbek Gasparali vafoti munosabati bilan “Oyina” jurnalida bosilgan “Ismoilbek hazratlari” nomli maxsus maqolasida ustozi faoliyatining mana bu qirrasiga diqqatni qaratgan: “Musulmonlarni dunyodan xabardor qilmoq uchun butun Rusiyada, Turkiya, Misr, Tunis, Jazoirda, Hind va Afriqoda, Turkiston va Buxoroda daf’alar ila sayohat etib, har yerda musulmonlarni madaniyati zamoniyaga, ulum va fununi asriyag‘a, sanoat va tijorati qarinaga va rus madaniyatiga da’vat va tashviq etgandurlar”.

Mutafakkir tatar taraqqiyparvari Muso Begiyev bilan ham yaqin aloqada bo‘lgan va uning islom diniga oid qarashlari hamda g‘oyalarini e’tirof etgan. Uning asarlari, tarjimalari bilan doimiy tanishib borgan. 1908-yili Muso Begiyev arab faylasufi Abul Ali Maariyning 13 ming baytdan iborat “Luzumiyot” devonini arab tilidan turk tiliga tarjima qilib, sharhlari bilan Qozondagi “Sharaf” matbaasida nashr qildirgan. Uning bu xizmatlarini Mahmudxo‘ja Behbudiy: “... kitobg‘a turkiy tarjima va munosibincha mudallil baoyat va hadis sharh etgan janob Muso afandi bin Jorulloh Begiyevni qudrat va quvvati ilmiya va adabiyasi ushbu asari purguhar va illiyin durri ila sobit bo‘ldi”, deb ta’riflaydi. Muso Begiyevning Sharq mamlakatlari bo‘ylab qilgan safarlari va u yerda islom dini ulamolaridan tahsil olgani e’tiqod bilan bog‘liq masalalarni yanada chuqur anglashiga xizmat qilgan, deb hisoblaydi. 1907-yili Qozonga borganida Muso Begiyev bilan uchrashib, u bilan suhbatlashgan hamda uning ilmidan “Shimol turklari” faxrlansa arzishini ta’kidlagan.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Mahmudxo‘ja Behbudiy islom dinining asl mohiyatini xalqqa yetkazuvchisi bo‘ldi. Asarlarida islomning najot dini ekani, taraqqiyotga, faravonlikka yetaklovchi din ekanini ko‘rsatib berdi. Faqat asarlar yozish bilan cheklanib qolmay, turli yig‘inlarni tashkil qilib, qarashlarini kengroq doiraga yetkazishga harakat qildi. Islom dinini faqat ibodatlar majmui emas, balki inson hayotining barcha jabhalarini qamrab oluvchi mukammal bir tizim sifatida talqin qildi. Xalqni Qur’oni karim va hadislarni to‘g‘ri tushunishga chaqirdi. Islom dini ilm-ma’rifatni qo‘llab-quvvatlovchi kuch ekanligini uqtirdi. Ayrim mutaassiblarning diniy masalalarni noto‘g‘ri talqin qilinishini keskin tanqid qildi.

Turkiston xalqini dinni to‘g‘ri anglab, ilm-fanga intilishga va zamon bilan hamnafas yashashga undadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Маҳмудхўжа Беҳбудий. Танланган асарлар. Тошкент. 2021.
2. Маҳмудхўжа Беҳбудий. Одамларнинг чиқарган нимарсалари // “Ойина” журнали. 1914. № 31.
3. Маҳмудхўжа. Саёҳат хотиралари // “Ойина” журнали. 1914 йил 42-сони.
4. Маҳмудхўжа. Каъбаи муаззама ва ҳаж шариф // “Ойина” журнали. 1914 йил 46-сони. 1090 – 1101-бетлар.
5. Маҳмудхўжа Беҳбудий. Баёни ҳақиқат // “Улуғ Туркистон” газетаси. 1917 йил 14 июн.
6. Абдусалом Азимий. Беҳбудий ҳақида хотира ва таассуротларим // “Зарафшон” газетаси. 1923 йил 25 март.
7. Маҳмудхўжа Беҳбудий. Падаркуш ёхуд ўқимаған боланинг ҳоли // Танланган асарлар. 2 жилдлик. 1-жилд. Тошкент. 2021.
8. Маҳмудхўжа Беҳбудий. Миллатлар қандай тараққий этарлар // “Самарқанд” газетаси. 1913 йил 30 июл.
9. Беҳбудий. Кийим ва ташаббуҳ масаласи // “Ойина” журнали. 1914 йил 34-сони.
10. Беҳбудий. Аввалги мусулмонлардаги маданият // “Ойина” журнали. 1915 йил 10-сони.
11. Беҳбудий. Таҳсил ва сафар замони ва таом // “Ойина” журнали. 1915 йил 10-сони.
12. Мирзоев С. Ранний этап просветительской литературы в Афганистане (первая треть XX века).: Дисс. на соискание уч. степ. док. филол. наук в форме доклада. Душанбе. 1994.
13. Иномхўжаев Р. Афғонистон маърифатпарварлик адабиёти очерклари. Тошкент. 1999.
14. История общественно-культурьного реформаторства в Центральной Азии и на Кавказе (XIX – начало XX века). Самарканд: МИЦАИ, 2012.
15. Маҳмудхўжа Беҳбудий. Исмоилбек ҳазратлари ила суҳбат // Танланган асарлар. 2-жилд. Тошкент: Академнашр. 2021.
16. Самарқандий муфти Маҳмудхўжа Беҳбудхўжа ўғли. “Лузумиёт” китоби // “Тужжор” газетаси. 1908 йил 14 декабр.